

Talaba yoshlar bilan uchrashuv

2021-yil 22-yanvar kuni soat 10:00 da TIQXMMI faollar zalida “Suv xo’jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti 1-kurs talaba yoshlari bilan Institut Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.Choriev uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvni “SSTE va B” fakulteti dekani R.Xakimov kirish so'zi ochib berib, talabalarni institut ichki tartib-qoidalari, muomala, kiyinish madaniyati va talablar haqida talabalarga hayotiy misollar bilan tushuntirish va tavsiyalar berib o'tdi.



Institut prorektori R.Choriev 1-kurs talabalarini institutda yoshlarga yaratilgan sharoitlar va ularning har tomonlama kamol topishi va bilim olishlari uchun yaratilgan qulay sharoitlar haqida to'xtalib o'tib, talabalarни institut hayotida faol bo'lishga chaqirdi. Uchrashuvda talabalar tomonidan o'zlarini qiziqtirgan savollar bo'yicha atroflicha javob oldilar. Shuningdek, faol talabalar o'zlarining taklif va murojaatlari bilan o'rtoqlashdilar. Uchrashuv qizg'in savol-javoblar ruhida o'tdi.

TIQXMMI matbuot xizmati